

«AUTO SPRING COMPONENTS» MCHJ


XARID XUJJATLARI

20.06.2022

"TASDIQLAYMAN"

«AUTO SPRING COMPONENTS»

MCHJ Bosh direktori v.v.b.



N.R.Ahmedov

ENG YAXSHI TAKLIF QABUL QILISH UCHUN

XARID QILISH XUJJATLARI

«Auto Spring Components» MCHJga soliq maslahatchisi
xizmatini xarid qilish

Buyurtmachi: «Auto Spring Components» MCHJ

Andijon-2022

MUNDARIJA

1. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma
2. Tanlovning texnik qismi
3. Tanlovning narx qismi

TANLOV ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'rinlarda «Qonun»)ga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2018 dagi №PQ-3550 sonli «Loyixaloidi, loyixa, tender xujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (keyingi o'rinlarda «Qaror»)ga, shuningdek, Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3016) (keyingi o'rinlarda «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. **Tanlov mavzusi:** «Auto Spring Components» MCHJga soliq maslahatchisi xizmatini xarid qilish. Andijon shahar, «Auto Spring Components» MCHJ.

1.3. Tanlovning quyi va yuqori qiymatlari va valyutalari tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.

1.4. Sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar va ishlar) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.

1.5. Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolarining ishtirokida etender.uzex.uz web sahifasida elektron tarzda o'tkaziladi.

2. Tanlov tashkil qiluvchilar

2.1. Tanlov buyurtmachisi «Auto Spring Components» MCHJ (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi») hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 170100, Andijon shahar, Lermontov ko'chasi, 4-uy.

Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 01114, STIR: 307 843 038; OKED: 29320.

x/r: 2020 8000 4052 9505 2001; AKB «Invest Finance Bank» Andijon viloyati filiali.

Buyurtmachining aloqa bog'lovchi vakili: Xarid bo'limi boshlig'i Yuldashev Sh.R. Tel: +998 97 273 72 80.

2.2. Mazkur tanlov xujjatlari maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

2.3. Tanlov komissiyasining ishchi organi «Auto Spring Components» MCHJ Xarid bo'limi (keyingi o'rinlarda «Ishchi organ») hisoblanadi

2.4. Shartnoma egasi: «Auto Spring Components» MCHJ

2.5. Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan yetti kishidan iborat kompaniyaning xarid qilish bo'yicha komissiyasi tomonidan baholanadi.

3. Tanlov ishtirokchilari

3.1. Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ishtirok etishlari mumkin. Ushbu tanlov xujjatlarining 4.2 bandida ko'rsatilgan yuridik shaxslar bundan mustasno.

4. Tanlov o'tkazish tartibi

4.1. Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari:

- Qonun xujjatlari va tanlov xujjatlari talablari xamda shartlariga muvofiq tijroiyl taklifini yuborish mumkin.

4.2. Tanlovda ishtirok etishga quyidagi ishtirokchilarga ruxsat berilmaydi:

- qayta tashkil bo'lish, tugatilish yoki inqirozlik bosqichida turgan;

- buyurtmachi bilan sudlashuv yoki arbitraj muxokamasida bo'lgan;

- Layoqatsiz (insofsiz) ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

- soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi bo'lgan;

- Imtiyozli soliq tizimi bilan ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda oshkoralikka va ma'lumot berishga yo'l qo'ymaydigan davlatlardagi yoki xududlar (offshor xududlar) dagi banklarda xisob raqamlari bo'lgan yoki ro'yxatdan o'tgan;

4.3. Buyurtmachi quyidagi holatlarda tanlov ishtirokchisini xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatish xuquqiga ega:

- Tanlov ishtirokchisi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror- bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki hodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yohud istalgan boshqa qimmatbaho buyumni yoki xizmatni bevosita yohud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- Tanlov ishtirokchisi O'zR qonunchiligini buzgan holda boshqa raqobatchilardan adolatsiz ustunlikka ega bo'lsa yoki qonunchilikka zid ravishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda.

5. Tanlov tili, o'lchov birligi

5.1. Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (xujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasi ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tanlov matnida tafovut

bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun quyiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi.

5.2. Tanlov takliflarida umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanilishi kerak.

6. Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi

6.1. Portalda e'lon qilingan tanlovda ishtirok etuvchilar o'z takliflarini elektron tarzda, o'rnatilgan tartibda etender.uzex.uz sahifasiga yuklaydilar.

6.2. Tanlov ishtirokchisi:

- taqdim qilinayotgan ma'lumot va xujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligiga javobgar;

- faqat bitta taklif berish huquqiga ega;

- takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

6.3. Tanlov taklifi ikki qismdan iborat:

- Texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan tovar haqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak;

- Narx qismi tanlov shartlariga mos kelishi kerak va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, maxsulot nomi, bir dona uchun narx, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va x.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

6.4. Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha so'rovnomani to'ldirilgan holatda tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda portalga joylash.

6.5. Tanlov takliflari <http://etender.uzex.uz>, portalida e'lon qilingan kundan boshlab 6 (olti) ish kuni ichida (17:00 gacha): <http://etender.uzex.uz> portaliga joylanadi.

6.6. Tanlov taklifi amal qilish muddati tanlov taklifi taqdim qilishning so'nggi kundan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kunni tashkil qilishi kerak.

7. Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish

7.1. Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovni qayta e'lon qilishi mumkin.

7.2. Tanlov takliflarini qayta e'lon qilish haqidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va zarur hollarda buyurtmachi saytida yoki boshqa OAVda e'lon qilinadi.

8. Tanlov xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish

8.1. Zarur hollarda buyurtmachi tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.

Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror taklif taqdim qilish muddatidan kamida 3 (uch) kun oldin qabul qilinishi mumkin.

Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish jarayonida maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish) yoki uning xarakteristikasi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Taklif taqdim qilish muddati tugaguncha tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritilgan xollarda, tanlov muddati o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'lmagan muddatga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.

9. Tanlov takliflari baholash tartibi va mezonlari

9.1. Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi. Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi. Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.

9.2. **Ball usuli** – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.

Eng past narx usuli – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini

9.3. Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.

9.4. Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicharad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.

9.5. Tanlov xujjatlari muvvafoqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov xujjatlari moderatsiyadan muvvafoqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov xujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.

9.6. Tanlov xujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yig'ish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommissiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.

9.7. Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan taklif tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi

9.8. Agar komissiya a'zolarida tanlov xujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa xarid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.

9.9. Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov tugashi sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha hisoblanadi.

9.10. Tanlov xujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma bajarilishi uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

9.11. Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov xujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov xujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov xujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov xujjatlari komissiya tomonidan bir ovozdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.

9.12. Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgardir.

9.13 Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov xujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.

9.14 Xarid jarayoni natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.

9.15 Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdor ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

9.16 Tanlov xujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda: - tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); - tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

10. Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish

10.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar: - ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib

tushayotgan tanlov takliflarini hisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar; - komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtasida til birlashtirishlar va boshqa noqonuniy xatti-harakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari; - barcha maxfiy texnik ma'lumotlar (chizmalar, standartlar va x.k) buyurtmachining tijorat siri bulib, uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi; - Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan holatda, va bu holat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurtmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish huquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini hisobga olgan holda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart; - Ishtirokchi, tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi haqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi.

10.2. Shartnoma bo'yicha majburiyatlari (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

11. Boshqa shartlar

11.1. Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod maxsulotlari taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu maxsulotlar bo'yicha uchinchi tomon bildirgan fikr muloxazani taqdim qilishni so'rashga haqli.

11.2. Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov xaqida izox olish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega

11.3. Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov xujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi. -Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.

11.4. Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:

- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki hech kim qatnashmasa;
- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa.

11.5. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga xaqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

11.6. Ishtirokchi asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.

12. Shartnomani rasmiylashtirish

12.1. Tanlov natijalariga ko'ra tanlov xujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan shartnoma imzolanadi.

12.2. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon komissiya tomonidan 5 (besh) kun ichida tasdiqlangandan keyin buyurtmachi e'lonni savdoga joylashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun buyurtmachi vakili shaxsiy kabinetning "Mening e'lonlarim" bo'limidagi jadvalning eng oxirgi "Harakat" bo'limi orqali "Savdoga joylashtirish" tugmasini bosadi.

Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 6(olti) ish kun savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng, avtomatik ravishda, eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng bayonnomani 2 (ikki) kun ichida komissiya a'zolari g'olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi

12.3. Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnoma imzolashni rad etgan holda shartnoma imzolash huquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi. Bunday holatda zaxiradagi ishtirokchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma imzolashi yoki shartnoma imzolashni rad etishi mumkin.

10.3.1. TANLOV SHARTLARI BO'YICHA

10.3.1.1. Ishirokchi tanlovda, ma'lumot narxlar QOS bilan va QOS da taklif etiladi.

10.3.1.2. Taklif e'tirayotgan narx va narxni taklif qiluvchi tanlovda tanlovda tanlovning narxlar qamida taqdim qilinadi.

10.3.1.3. Ishirokchi tomonidan, ma'lumot (xizmatlar ishlar) birligidagi narxlar ko'rsatilib shart.

Agar Buyurtmachi tomonidan narx shakllanish jarayoni xatirayotgan holda, uni ko'rib oling qabul qilib, Ishirokchi tomonidan tanlovda taklif etilgan va unzo, muhr bilan tasdiqlangan ko'rsatilib taqdim qilinadi. Buyurtmachi narx shakllanishida formulalar kuzatilib imkon va narxlar taklif etilgan shart va narxlar bo'lib taqdim qilinadi. Yashirov formulalar yoki narxlar shakllanishidan foydalanmaslik kerak.

Buyurtmachi, Ishirokchi tomonidan narx taklifga har qanday qo'shimcha yoki ma'lumot narx takliflari ko'rib olingmaslik toqatini o'zida qabul qilib.

- | | |
|--|--------------------------------|
| 1. Tahliliy narx: | 42 000 000 (Qirq ikki million) |
| 2. Moliyaviy shartlar: | O'z mablag'ini |
| 3. Tanlov shartlari va to'lov tartibi: | Kelishuv shartida |

TEXNIK QISM

«Auto Spring Components» MCHJga soliq maslahatchisi xizmatini xarid qilish

Ko'rsatilayotgan tovar (ish, xizmat)ning soni, xajmi va xususiyati (talablari)

Mahsulot yetkazib berish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjatlarining texnik qismi, mazkur xujjatning 1-ilovasida ko'rsatilgan «Texnik topshiriq» (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

Tovarlar (ish, xizmatlar)ni yetkazib berish muddati (yoki jadvali), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan, xizmatlar

Yetkazib berish tartibi: shartnoma imzolanganidan so'ng buyurtmachining buyurtmasiga ko'ra 1 moliya yili davomida.

TOVARLAR (ISH, XIZMATLAR) NARXI BO'YICHA

Ishtirokchi tomonidan, mahsulot narxlari **QQS bilan** va **QQS siz** taqdim etiladi.

Taklif qilinayotgan narxlar va narxlar jadvali Ishtirokchi tomonidan Tanlovning narxlar qismida taqdim qilinadi.

Ishtirokchi tomonidan, mahsulotlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxlari ko'rsatilishi shart.

Agar Buyurtmachi tomonidan narx shakllanish jadvali (калькуляция) taqdim etilgan holda, uni to'ldirish talab etilsa, Ishtirokchi tomonidan to'ldirilgan jadval elektron va imzo, muhr bilan tasdiqlangan ko'rinishda taqdim etilishi shart. Bunda, barcha narx shakllanishidagi formulalar kuzatilishi imkoni va narxlarni tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi lozim. Yashirin formulalar yoki narxlar shakllanishidan foydalanmaslik lozim.

Buyurtmachi, Ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga har qanday qo'shimcha yoki muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

- | | | |
|----|-------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. | Tahminiy narxi: | 42 000 000 (Qirq ikki million) so'm; |
| 2. | Moliyalashtirish manbai: | O'z mablag'lari; |
| 3. | To'lov shartlari va to'lov tartibi: | Kelishuv asosida; |

4. To'lov valyutasi: O'zbek so'mi;
5. Yetkazib berish vaqti; Shartnoma imzolanganidan so'ng 1 yil davomida
6. Mahsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish): CIP Andizhan (Buyurtmachi manzili)
7. Tanlov uchun taqdim etilgan takliflarning amal qilish muddati: 30 kun

№	Xizmat nomi	Spetsifikatsiya	O'lchov birligi	Miq-dori	Narx (UZS) 1 oy uchun	Umumiy Narx (UZS) Yillik
1	Soliq maslahati xizmati	Jamiyatga soliq munosabatlari bo'yicha maslahatlar berish	Oy	12	3 500 000	42 000 000
	JAMI			12		42 000 000

NARX JADVALI

№	Xizmat nomi	Spetsifikatsiya	O'lchov birligi	Miq-dori	Birlik narxi, so'm QQSsiz	Birlik narxi, so'm QQS bilan	Summa (UZS) QQSsiz	Summa (UZS) QQS bilan

To'liq ism-sharifi. Rahbar va vakolatli shaxsning imzosi


Ishtirokchi korxonada muxri qo'yish joyi

Sana: « ___ » _____ 2022y.

Eslatma: Mahsulotning birlik narxi va umumiy narxi o'rtasida, shuningdek tanlov taklifining alohida xujjatlari o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi o'zi uchun foydali bo'lgan narx (qiymat) yoki shartlarni qabul qilishga haqli.

Komissiya raisi:


Bosh direktor v.v.b.



N.R. Ahmedov

Komissiya a'zolari:

Iqtisodiy masalalar bo'yicha bosh direktor o'rinbosari




O.A. Yusupov

Texnik rivojlantirish va texnologiyalar
bo'limi boshlig'i

MEYHAT
TAQTILAN

S.A.Ahmedov

Bosh hisobchi



I.I.Dadabayev

Yangi loyihalar va maxalliy lashtirish
bo'limi boshlig'i




X.A.Raximov

Xodimlar bo'limi boshlig'i



O.B.Usubjonov

Xo'jalik bo'limi yetakchi mutaxassisi



X.T.Xasanov

Komissiya mas'ul kotibi:
Xarid bo'limi boshlig'i



Sh.R.Yuldashev

Buyurtmachisi:

Bosh hisobchi



I.I.Dadabayev